

Date: 23<sup>rd</sup> January-2025

O'ZBEKISTONDA TURIZM TAKOMILLASUVI

Тиллаев Рустамжон Абдумуталибович

Бош прокуратура хузуридаги ҳуқуқни муҳофаза қилиш академияси  
2 босқич талабаси

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada turizm sohasining shakllanishi, fan sifatida o'rganilishi, turizmning tarixi, O'zbekistonda turizm sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan faoliyat yoritilgan

**Kalit so'zlar:** Turizm, islohot, faoliyat, integratsiya, xalqaro xamkorlik, sayr, sayohat, sayyohlik, sayohat, safar, geosiyosat, doimiy istiqomat joyi, sog'lomlashtirish, ma'rifiy, kasbiy, sammit, xalqaro forum, global iqlim o'zgarish

**Аннотация:** В данной статье освещаются становление туристской отрасли, ее изучение как науки, история туризма, деятельность по ускорению реформ в сфере туризма в Узбекистане

**Ключевые слова:** Туризм, реформы, деятельность, интеграция, международное сотрудничество, путешествия, путешествия, путешествия, Путешествия, геополитика, постоянное место жительства, оздоровление, образование, профессиональная деятельность, саммит, международный форум, глобальное изменение климата

**Annotation:** This article covers the formation of the tourism sector, its study as a science, the history of tourism, the activities carried out in Uzbekistan to accelerate tourism reforms

**Keywords:** Tourism, reform, activity, integration, international cooperation, Travel, Travel, Tourism, Travel, Travel, geopolitics, permanent residence, wellness, Educational, Professional, Summit, International forum, global Climate

Songgi yillarda mamlakatimizda turizm sohasida amalga oshirilayotgan ulkan amaliy xarakterli xalqaro xamkorlik yuqoti natijalarni bermoqda. Mamlakatimiz rivojlangan davlatlar bilan integratsiyalashuvi va xalqaroro turizm davlati bo'lish uchun zamin yaratilmoqda.

Turizmni takomillashtirish uchun mamlakatimiz tarixiy rivojlanishidagi, tabiatidagi, ijtimoiy turmushdagi asoslar mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev parlamentga Murojaatida barcha sohalar qatorida turizm sanoati borasida quyidagi fikrlarni bildirdi: O'zbekiston katta tarixiy-madaniy merosga – 7300 dan ortiq qadimiy-me'moriy va arxeologik obidalarga ega. Ularning ko'pchiligi Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Termiz, Qo'qon va Toshkent shaharlarida joylashgan. Yurtimizdagi 200 dan ziyod tarixiy yodgorlik va obidalar YuNeSKOning madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan<sup>1</sup>.

Turizmni rivojlantirish borasida olib borilayotgan faoliyatimiz geosiyosiy talablar asosida amalga oshirilmoqda va bu borada siyosiy yetuk kadrlar zahirasi

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va xalqiga Murojaatnomasi.2018 yil 22 dekabr



Date: 23<sup>rd</sup> January-2025

shakllantirilmogda. Mamlakatimiz rahbari, qonun chiqaruvchi tizimimiz bu borada yangi ishlohiy xarakterlarni amalga oshirmogda.

Turizm borasida ayrim fikrlarni ko'rib o'tar ekanmiz, ushbu iboraning lug'aviy ma'nosiga e'tibor qaratamiz. Turizm<sup>2</sup> (fransuzcha: *our* — sayr, sayohat), sayyohlik — sayohat (safar) qilish; faol dam olish turlaridan biri. Turizm deganda jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog'lomlashtirish, ma'rifiy, kasbiy amaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda (mamlakatda) haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda 24 soatdan kam bo'lmagan va 365 kundan oshmagan holda sayohat qilishi tushuniladi. Garchang, dunyo miqyosida sayohat qilish qadimdan insoniyatning jaxongashta insonlariga qadimdan ma'lum bo'lsada, fan sifatida o'rganuvchilar ma'lumotiga ko'ra, turizmning fan sifatida o'rganish tarixi XIX asr boshlariga borib taqaladi, deb fikr bildirilgan<sup>3</sup>.

Dastlab Angliyadan Fransiyaga uyushgan sayyohlik tashkil etilgan (1815). Turizmning asoschisi hisoblanmish ingliz ruhoniysi Tomas Kuk 1843-yilda 1-temir yo'l sayyohligini tashkil qildi. Shundan so'ng u o'zining xususiy turistik korxonasini tuzdi va 1866-yilda dastlabki sayyohlik guruxlari AQShga jo'natildi. Sharqda arab sayyohi Ibn Battuta 21 yoshida sayohatini boshlab, deyarli barcha Sharq va Shimoliy Afrika mamlakatlarini piyoda kezib chiqdi

Shuningdek, berilgan ma'lumotga ko'ra, Movarounnahrda ilk sayyohlarning safarlari Amir Temur va Temuriylar davrida faollashgan. Amir Temur fransuz qiroli Karl VI va ingliz qiroli Genrix IV bilan doimiy aloqada bo'lgan. Uning elchisi 1403-yili Parijga kelgan. Ispaniyalik Klavixoning "Buyuk Temurning hayoti va faoliyati" kitobida Movarounnahrda ijtimoiiy hayot va sayyoxlarning Temur davlatiga intilishi aks etgan.

Turizm sohasidagi munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish, turistik xizmatlar bozorini rivojlantirish o'tgan asrda mamlakatimizda huquqiy asoslanishni boshlagan.

O'zbekistonda turizm sohasiga rahbarlikni "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi 1992-yil 27-iyulda tuzilgan. Ushbu kompaniyaning asosiy vazifasi turizm infrastrukturasi rivojlantirish, chet el sarmoyasini jalb qilib zamonaviy turistik komplekslarni barpo etish, yangi turistik yo'nalishlarni ishlab chiqish, xizmatlar doirasini kengaitirish va boshqalardan iborat etib belgilangan.

O'zbekiston 1993-yilda o'z safiga 120 dan ortiq mamlakatni birlashtirgan Jahon turistik tashkilotiga a'zo bo'ldi. Bu tashkilotning qisqa nomi WTO bo'lib, 1975-yilda tuzilgan, O'zbekiston WTO Yevropa komissiyasi rayosatining ham a'zosidir.

2004-yil "Buyuk ipak yo'li" loyihasi doirasida Samarqand viloyatida Jahon turistik tashkilotining vakolatxonasini ochish ko'zda tutilgan. O'zbekistonda 1994 yildan turizm sohasiga oid "Buyuk ipak yo'li" xalqaro turistik reklama axborot gazetasi, "Biznes Gayd" jurnallarining rus va ingliz tillarida nashlari va boshqa ommaviy nashrlar chop etiladi.

<sup>2</sup> [Turizm - https://uz.wikipedia](https://uz.wikipedia)

<sup>3</sup> [Turizm - https://uz.wikipedia](https://uz.wikipedia)



Date: 23<sup>rd</sup> January-2025

Turizm tashkilotlarini takomillashtirish maqsadida 1998-yilda O'zbekiston Respublikasi hukumati qarori bilan Toshkentda "Xususiy sayyoxlik tashkilotlari uyushmasi" tashkil etildi. U 300 dan ziyod turistik korxonalar bilan yaqindan aloqada bo'lib faoliyat olib boradi. O'zbekistonda "Kumushkon" turistik bazasi va "Sanzar" kemping majmuasi mavjud bo'lib, ular "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi tizimi tashkilotlari hisoblanadi. Shu bilan birga Chorvoq, Chimyon, Beldersoy dam olish oromgohlari va yuzga yaqin xususiy mehmonxonalar ishlab turibdi. O'zbekistonda ko'plab turistlarni qabul qilish va ularga xizmat ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lgan mehmonxonalar soni tobora o'sib bormoqda.

Turistlar va turistik faoliyat sub'yektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida 1999 yil 20 avgutda O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi qonuni qabul qilingan. Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 1999 yil 15 aprelda "2005-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekistonda turizmni rivojlantirish davlat dasturi to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi. Bu hujjatlar sohani rivojlantirishda muhim omil bo'ldi.

Shu bilan birga, mamlakatimizning betakror tabiati, go'zal dam olish maskanlari imkoniyatlaridan foydalanib, yangi turistik yo'nalishlar ochish mumkin. Bu sohaga jahon brendlarini faol jalb etgan holda, biz ziyorat turizmi, ekologik, ma'rifiy, etnografik, gastronomik turizm va bu sohaning boshqa tarmoqlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishimiz zarur. Bu borada davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini qo'llash sohani taraqqiy ettirishda keng imkoniyatlar ochishini hisobga olishimiz lozim.

Samarqand, Buxoro, Toshkent shaharlaridagi muqaddas qadamjolar va yodgorliklarni ziyorat qilish dasturini rivojlantirish va jadallashtirish zarur. Ichki turizm sohasidagi katta imkoniyatlarni ham to'liq ishga solish lozim».

Shuningdek, davlatimiz rahbarining 2016 yil 2 dekabrda «O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni sohada uchrayotgan xato va kamchiliklarni bartaraf etib, uni izchil rivojlantirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Prezidentimiz mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisida turizm haqida so'z yuritarkan, bunday serdaromad soha rivoji e'tibordan chetda qolib kelayotgani, uning O'zbekiston iqtisodiyoti taraqqiyotiga qo'shadigan hissasini oshirish, tarixiy va madaniy qadriyatlarimizni targ'ib qilish, shuningdek, valyuta zaxiralarini to'ldirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ko'rilishi zarurligini alohida ta'kidladi

Turizm sohasidagi keng ko'lamlı islohot Yangi O'zbekiston qurish sharoitida takomillashdi.

So'nggi yillarda turizm tarmoqlariga qaratilayotgan yuqori e'tibor natijasida yurtimizga tashrif buyurayotgan mahalliy va xorijiy mehmonlar hamda sohada faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlariga qulay sharoitlar, turizm infratuzilmasini yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan keng ko'lamlı ishlar olib borish boshlandi. Jumladan, turizm



Date: 23<sup>rd</sup> January-2025

tarmoqlari hamda joylashtirish vositalarida xizmat turlarining yaqqol ortishi va yuqori servis salohiyatining yo'lga qo'yilmoqda.

2021-yil aprel oyida Dog'istonda O'zbekistonning ziyorat turizm salohiyati taqdimoti o'tkazildi. Bosh vazir o'rinbosari, Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi raisi Aziz Abduhakimov topshirig'i bilan Dog'istonda «Imomlar yurtiga sayohat» yo'nalishidagi targ'ibot ishlari boshlangan<sup>4</sup>.

Turizm sohasini rivojlantirishda O'zbekiston Prezidenti asosiy tashabbuskor hisoblanmoqda.

Prezidentimiz dunyoning 33 ta mamlakatida O'zbekiston elchixonalari faoliyat ko'rsatayotgan elchilarga qarata qilgan onlayn murojaatida O'zbekistonga xorijiy investitsiya hamda turistlarni jalb qilishni, ayniqsa, har bir elchiga har kuni 10 nafar sayyoh jo'natishga e'tibor berishni ta'kidladi. Ya'ni, turist ham investitsiya degani, degan g'oyani ilgari surdi.

Davlat rahbarining yurtimizda barcha sohalar qatorida turizmga ham katta e'tibor qaratishi bu sohada ko'zga tashlanib kelinayotgan kamchilik va muammolarni bartaraf etish choralari jadallik bilan amalga oshirilishida dasturulamal bo'lib xizmat qilishi shubhasiz. O'zbekiston yirik turizm salohiyatiga ega mamlakatlar qatorida o'z o'rnini va ahamiyatiga ega ekan, demak biz mavjud imkoniyatlardan maksimal darajada foydalanishimiz kerak.

O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev dushanba kuni Samarqandda Jahon sayyohlik tashkiloti (YUNVTO) Bosh assambleyasining 25-sessiyasi ochilishida mamlakatlar o'rtasida turizm sohasidagi hamkorlikni chuqurlashtirishga qaratilgan qator tashabbuslarni ilgari surdi<sup>5</sup>.

“Global turizmning eng dolzarb muammosi — bu **turistlarning kafolatlangan xavfsizlik tizimini ta'minlashdir**. Bugungi kunda dunyoning turli mintaqalarida kuzatilayotgan nizo va beqaror vaziyatlar soha rivojiga pandemiyadan ham ko'ra ko'proq salbiy ta'sir ko'rsatmoqda”, — dedi prezident. Jumladan, O'zbekiston prezidenti Global xavfsiz turizm kodeksini ishlab chiqishni taklif qildi.

Bundan tashqari, u Butunjahon turizm tashkiloti huzurida **Sayyohlik bo'yicha tarixiy shaharlar kengashini tuzish** taklifini ham bildirdi. Kengashning birinchi yig'ilishini qadimiy Buxoroda tashkil etishga tayyorligi ma'lum qilindi

2014 yil 14 yanvarda Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Dubay va Bokuda bo'lib o'tgan COP-28 va COP-29 sammitlari va xalqaro forumlarda global iqlim o'zgarishlarining salbiy oqibatlarini bartaraf etish uchun Iqlim tufayli yo'qotish va zararlarni baholash bo'yicha xalqaro markazni ta'sis etish, daryo ekotizimlari xavfsizligini ta'minlash, Suv tejovchi texnologiyalar mintaqaviy xabini tashkil qilish, O'simliklar genetik resurslari bankini yaratish tashabbuslar ilgari surilgani va barcha hamkorlar bilan amaliy ishlarni boshlashga tayyorligini bildirdi.

<sup>4</sup> Dog'istonda Ўзбекистоннинг зиёрат туризм салоҳияти тақдимоти. *Bugun.uz*. 2021-yil 13-avgust

<sup>5</sup> <https://www.gazeta.uz/>



Date: 23<sup>rd</sup> January-2025

Hozirgacha xorijiy mamlakatlarda O'zbekiston haqida ko'proq ma'lumotlarni targ'ibot qilishda oqsoqlikka yo'l qo'yilmoqda. Xususan, bugungi kunda yurtimizga tashrif buyurayotgan aksariyat sayyohlar turizm firmalari tomonidan jalb etilmoqda. Yevropaning deyarli barcha mamlakatlarida O'zbekiston haqida aholida yetarlicha ma'lumot yo'q. Ular aynan turfirmalar orqali eshitib, qiziqish bildirib kelishmoqda.

**FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:**

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va xalqiga Murojaatnomasi. 2018 yil 22 dekabr
2. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: “Ўзбекистон” нашриёти, 2021. 69 б.
3. Chuboyeva O. Oila ma'naviyati-jamiyat taraqqiyoti omili. So'nggi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi. 7-jild 10-son Respublika ilmiy-uslubiy jurnali 13.10.2024. 106-112
4. Chuboyeva O. Nikoh munosabatlarida milliylik va qonun normalarining amal qilishi. So'nggi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi. Respublika ilmiy-uslubiy jurnali. 13-mart, 2024-yil 7-jild 3-son. 131-135
5. <https://uz.wikipedia>
6. *Bugun.uz*. 2021-yil 13-avgust

